



## SAN'AT VA MADANIYAT SOHASIDA TA'LIM OLAYOTGAN TALABALARINING IJODIY QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH.

**Akjol Meldebekov**

O'zbekiston davlat konservatoriyasi huzuridagi  
Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada  
San'ati instituti "Estrada xonandaligi" kafedrası  
katta o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15705103>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-Iyun 2025 yil

Ma'qullandi: 14-Iyun 2025 yil

Nashr qilindi: 20-Iyun 2025 yil

### KEY WORDS

*san'at, madaniyat, ijodkorlik qobiliyatlari, ta'lim tizimi, ta'lim-tarbiya, ijodiy faoliyat, g'oya, rag'batlantirish.*

### ABSTRACT

*Mazkur maqolada talabalarning ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirishning samarali usullari, ta'lim shakllari va vositalari tahlil qilingan. Ijodkorlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik yondashuvlar, zamonaviy texnologiyalarning o'rni keng yoritilgan.*

Madaniyat va san'at hayotimizning ajralmas bir qismi hisoblanadi. Mustaqillik yillarida yurtimizda madaniyat va san'at sohasini rivojlantirish, jahon miqyosidagi ilg'or tajribalar asosida zamonaviy madaniyat va san'at muassasalari barpo etish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ijodkor ziyolilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash masalalariga davlatimiz tomonidan katta ustuvor ahamiyat qaratib kelinmoqda. Yoshlarning madaniy saviyasini yuksaltirish, ularni milliy va umumbashariy madaniyatning eng yaxshi namunalaridan bahramand etish, shu asosda ma'naviy yetuk, barkamol shaxslarni tarbiyalash, yosh iste'dod egalarining qobiliyati va salohiyatini ro'yobga chiqarish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Yoshlarni san'at maskanlariga, xususan, teatr va muzeylar, konsert tomoshalariga muntazam jalb etish, o'zbek va jahon madaniyatining eng sara namunalaridan bahramand etish orqali ularning ma'naviy-axloqiy, estetik didi va madaniy darajasini yanada yuksaltirish vazifalari bajarilmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev xalqimizning ma'naviy kamolotida ijodkorlarning xizmati beqiyos ekanini alohida ta'kidlab, taraqqiyotimizning hozirgi bosqichida barcha sohalar vakillari qatori madaniyat va san'at ahlidan ham yanada faollik, yangi-yangi ijodiy g'oya va tashabbuslar bilan yashash, izlanish ruhi talab etilayotganini ta'kidladi. "Bir haqiqatni hech qachon esimizdan chiqarmasligimiz kerak: mamlakatimizda madaniyat va san'at taraqqiy etmasa, jamiyat rivojlanmaydi. Xalqimizning rivojlanish darajasi avvalo milliy madaniyatimizga qarab baholanadi. Madaniyat va san'at shu darajada keng qamrovli sohaki, u bir-birini takrorlamaydigan, bir-biriga o'xshamaydigan, mustaqil ijodni talab etadigan tizimlarni o'zida birlashtiradi. Prezidentimiz Farmonida mana shu keng ko'lamli sohaning har bir halqasi manfaati hisobga olinib, muhim chora-tadbirlar belgilandiki, ularning hayotda to'la o'z ifodasini topishi madaniyat va san'atning bir zanjir o'laroq mustahkam uyg'unlikda rivojlanishiga zamin bo'ladi.

Bugungi kunda ta'lim tizimi faqatgina bilim berishga emas, balki talabalarni hayotda mustaqil qarorlar qabul qilish, muammolarni tahlil qilish va ijodiy yechimlar topishga qodir shaxs sifatida shakllantirishga yo'naltirilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish masalasi zamonaviy ta'limning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Chunki ijodkorlik nafaqat individual rivojlanishning, balki milliy va xalqaro miqyosda innovatsion taraqqiyotning ham asosiy omili hisoblanadi. Shuningdek, zamonaviy ta'limda ijodkorlikni rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalarni o'z ichiga oladi. Talabalarning ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirish uchun quyidagi usullar samarali hisoblanadi.

Birinchidan; muammoli ta'lim usulidan foydalanish talabalarning mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bu usul talabalarni real hayotiy vaziyatlarga yaqin bo'lgan masalalarni hal qilishga jalb etadi.

Ikkinchidan; miya hujumi metodi ijodiy g'oyalarni shakllantirishda keng qo'llaniladi. Bu metod orqali talabalar o'z g'oyalarini erkin ifoda qilishga va jamoaviy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Uchinchidan; loyiha usuli talabalarni ijodiy faoliyatga jalb qilib, ularning nazariy bilimlarini amaliyot bilan bog'lash imkonini beradi.

Mustaqil taraqqiyot yo'lidan borayotgan mamlakatimizning uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish, axborot texnologiyalarini joriy etish va ta'lim samaradorligini oshirish bo'yicha keng qamrovli ishlar olib borilmoqda. Zamonaviy sharoitda ta'lim jarayonini tashkil etishda, talabalarning o'quv faoliyatlarini nazorat qilishda innovatsion xarakterga ega vositalardan foydalanilmoqda.

Shuni aytish mumkinki, yurtimizda yosh iste'dodlar soni juda ko'p. Ko'p hollarda uchraydigani, yoshlarning o'z ijod namunalarini ijtimoiy tarmoqlar va internet saytlarida qo'yib borishlari va ba'zilar keng omma ichida e'tirof etilib, olqishga sazovor bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Bu albatta yaxshi, lekin ularning keyingi ijodiy faoliyatini yuksalishi uchun bular kamlik qiladi. Yuqoridagi ana shunday yosh iste'dodlarni izlab topish, ularning ta'lim olishi va iqtidorini namoyon etishiga sharoit yaratish maqsadida qator chora-tadbirlar belgilanmoqda. Jumladan, ana shu yo'lda "Yosh ijodkorlarni qo'llab — quvvatlash va axborot-multimedia markazi" davlat muassasasi, boshqacha aytganda, prodyuserlik markazi tashkil etilishi, shuningdek, notalar to'plamlari va maxsus musiqiy adabiyotlar, ta'lim muassasalariga to'liq yetkazib berilishi ko'plab imkoniyatlarni ochib berishga xizmat qiladi.

Shu o'rinda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning quyida keltirgan mulohazalarini ham ta'kidlab o'tmoq joizdir: Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz (5,14-b). Darhaqiqat jahon fani ravnaqiga ulkan hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimiz komil insonni tarbiyalashda musiqaning o'rnini chuqur anglab, shaxs kamolotidagi ahamiyatini o'z asarlarida, pedagogik qarashlarida tadqiq qilib bizga beqiyos manbalar qoldirganlar.

Buyuk mutaffakirlar Al Forobiy, Abu ali Ibn Sino, Abdulqodir Marog'iy, Sharafiddin ali Yazdiy, Mahmud Qoshg'ariy, Ahmad Yugnakiy, Sadiy Sheroziy, Abdurahmon Jomiy, Kavkabi, Darveshali Changiy, Komil Xorazmiy, Alisher Navoiy, Zahriddin Muhammad Bobur kabi allomalarning qator asarlarida keltirilgan musiqaga oid ma'lumotlar bugungi kunda o'z ilmiy, nazariy hamda tarbiyaviy jihatdan yosh avlodni tarbiyalash jarayonida eng dolzarb va eng

kerakli manba ekanligini ko'rishimiz mumkin. Ma'lumki yaxshi oilaviy muhitda tarbiyalangan bolaning hayot haqidagi turli voqea-hodisalar, urf-odat, madaniyat va san'atga oid taassurotlari ko'pincha ijobiy kechadi. Oiladagi birlikda televizor ko'rish, konsert tomosha qilish, teatr tomosha qilish va o'z taassurotlarini o'rtoqlashish kabi muloqotlar bolalar dunyoqarashini o'stirib, hayotiy voqealarni aks ettiruvchi adabiyot, san'at musiqani mohiyatini tushunish va badiiy idrok etishga olib keladi. Eng avvalo musiqaga oilaviy muhiti yiroq bo'lgan bolalarni qiziqtirish uchun ham va qiziqqan bolalarni yanada dunyoqarashini oshirish uchun ham o'rta ta'lim maktablarida, Maktabgacha ta'lim muassasalarida san'at ustalari bilan ijodiy uchrashuvlar ko'ngilochar tadbirlarni tashkillashtirish ularning musiqa haqidagi tasavvurlarini kengaytirish, o'quvchi yoshlarning qiziqishini o'stirib, bo'sh vaqtlarini behuda sarflamasliklarini oldini olishimiz mumkin. Bejizga davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev bugungi kunda yurtimizda amalga oshirilayotgan: "Besh muhim tashabbus"ni joriy qilmaganlar. Aynan shu besh tashabbusimizning birinchi yo'nalishi musiqa va san'atga bag'ishlangan. Mana shundan ham ko'rinib turibdiki musiqaning yosh avlod tarbiyasida o'rni kattaligini.

Qobiliyat–insonning individual salohiyati va imkoniyatlaridir. Qobiliyat bilimdan keskin farqlanadi; bilim mutolaa natijasi hisoblanadi, qobiliyat esa shaxsning psixologik va fiziologik tuzilishining xususiyati sanaladi. Qobiliyatning yetakchi xususiyatlaridan biri — narsa va hodisalar mohiyatini ijodiy tasavvur qilishdir. U shaxsning shakllanishi va rivojlanishi natijasi bo'lishi bilan birga, tabiiy manbaga ham ega. Bu tabiiy manba ko'pincha zehn tushunchasi bilan yuritiladi. Zehn muayyan bir faoliyatga yoki ko'pgina narsalarga nisbatan ortiqcha qiziquvchanlikda, moyillikda, intilishda namoyon bo'ladi. Qobiliyatlar, aslida, tug'ma bo'ladi. Qobiliyat tug'ma bo'lsa-da uning rivojlanishi ijtimoiy muhitga ham bog'liq bo'ladi. Qobiliyatlar — bu faoliyat talablariga javob beradigan va uni muvaffaqiyatli amalga oshirish sharti bo'lgan shaxsning individual psixologik xususiyatlari. Insonning individual qobiliyatlari hali murakkab faoliyatni muvaffaqiyatli yakunlashni kafolatlamaydi. Har qanday faoliyatni muvaffaqiyatli o'zlashtirish uchun qobiliyatlarning birligini, sifat jihatidan noyob yaxlitligini, sintezini tashkil etuvchi alohida, alohida qobiliyatlarning ma'lum bir kombinatsiyasi zarur. Ushbu sintezda individual qobiliyatlar ma'lum, asosiy narsa atrofida birlashadi shaxsiy ta'lim, markaziy qobiliyatning bir turi.

Qobiliyatning rivojlanishi va shakllanishi, bu:

- birinchidan, ma'lum bir faoliyatga moyillik yoki intilish borligiga va faoliyat natijalarining sifatiga qarab, tegishli tabiiy zehn nishonalarini aniqlash yo'li bilan;
- ikkinchidan, mutaxassis rahbarligida tizimli faoliyatga jalb etish orqali shaxsning tabiiy xususiyatlarini chiniqtirish va rivojlantirish yo'li bilan;
- uchinchidan, umumlashgan aqliy operatsiyalarni shakllantirish yo'li bilan;
- to'rtinchidan, o'quvchining maxsus qobiliyatini kamol toptirishni jadallashtirishni ta'minlovchi shaxsni har tomonlama rivojlantirish yo'li bilan;
- beshinchidan, shaxsning faollik alomatlarini tarbiyalash yo'li bilan;
- oltinchidan, o'quvchilarga nisbatan individual munosabatda bo'lishni umumiy talablar bilan uyg'unlikda olib borishdir;

Mustahkamlaydigan ham mana shu hisoblanadi. Har qanday ko'ngilni o'ziga rom eta oladigan, insonlarni qalbiga ezgulik urug'ini ekib boshqa yomon illatlarga qarshi kurashadigan ham musiqa desak mubolag'a emas. Ijodkorlik ko'plab fazilatlarining

birlashuvidir. Va ijodkorlikning tarkibiy qismlari masalasi hali ham ochiq. Ko'pgina psixologlar ijodiy faoliyat qobiliyatini, birinchi navbatda, fikrlashning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'lashadi. Inson aqli muammolari bilan shug'ullangan mashhur amerikalik psixolog J. Gilford ijodiy shaxslarga divergent fikrlash deb ataladigan narsa xos ekanligini aniqladi. Bunday fikrlash turiga ega odamlar muammoni hal qilishda barcha sa'y-harakatlarini yagona to'g'ri yechimni topishga qaratmaydilar, balki iloji boricha ko'proq variantlarni ko'rib chiqish uchun barcha mumkin bo'lgan yo'nalishlarda yechimlarni izlay boshlaydilar. Bunday odamlar ko'pchilik biladigan va faqat ma'lum bir tarzda foydalanadigan elementlarning yangi birikmalarini yaratishga yoki birinchi qarashda hech qanday umumiylikka ega bo'lmagan ikkita element o'rtasida bog'lanishlarga moyil bo'ladi. O'quvchi- talabalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda o'z-o'zini anglash, yoki shaxs "Men"ni shakllantirish ham o'ta muhimdir. Bu o'quvchida o'z xulqini tarkib toptiradigan, o'z-o'zini anglagan va anglamagan tasavvurlari tizimi sanaladi. Yuqoridagi fikrlarga asoslangan holda kichik maktab yoshidagi o'quvchilar ijodiy qobiliyatni shakllantirish modelini quyidagicha tavsiya etishimiz mumkin. Shu o'rinda o'z-o'zidan sezilib turibdiki musiqa san'ati qanchalik beqiyosligi hamda tarbiyaviy jihatdan ham katta ahamiyatga ega ekanligini. Musiqaning inson ruhiyatiga ta'sir qilish borasida keng imkoniyatlar qadimdanoq musiqashunoslar, mutafakkirlar va olimlar diqqatini o'ziga jalb qilgan. Ular musiqa san'atining insonlarini shaxs sifatida shakllanishiga ta'sir qiladigan xususiyatlarini aniqlashga urinishgan. Pedagogik ta'lim yo'nalishlarida asosiy muammo ularda ko'pincha oliy ta'lim muassasasiga kirish uchun aniq fanlarga tayyorlanganligi va kreativ fikrlash, ijodkorlik qobiliyatiga e'tiborning yo'qligida. Vaholanki, bo'lajak pedagogda ijodkorlik qobiliyati juda katta ahamiyatga ega bo'lib, talabalarda ushbu qobiliyatni rivojlantirish bugungi kunda dolzarb muammo hisoblanadi. Talabalarda ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish uchun amaliy mashg'ulotlarda berilgan topshiriqlarni bajarish kamlik qiladi, buning uchun talabalarda motivatsiya va o'zi bajargan ishdan qoniqish hissini tug'dirish kerak. Talabaning ijodiy faoliyatini quyidagilar rag'batlantiradi:

1. O'zlashtirish. Uning yordamida boshqa sohalardan badiiy haqiqatlar izlab topiladi. Masalan, biron asar kompozitsiyasi shaklini topishga turtki bo'lishi mumkin. Hayotning o'zi ijodkor uchun bitmas-tuganmas g'oyalar manbaidir.

2. To'ldirish. Aytaylik, bironta sifatli tasvirning soddalashtirilgan ko'rinishi, bir nechta ana shunday ko'rinishlarni mujassamlashtirgan murakkabroq tasvir yaratish uchun asos vazifasini o'tashi mumkin.

3. Ajratib olish. Ijodkor bironta tasvirning o'ziga yoqqan qismini ajratib oladi va uning asosida yangi tasvir dizaynini ishlab chiqadi.

4. Qayta ishlash. Talaba muvaffaqiyatli chiqqan bironta tasvirni olib, uning tuzilishini o'zgartiradi, masalan, o'z tasvirida to'rtta emas, balki uchta obyekt joylashtiradi yoki ranglar uyg'unligini o'zgartiradi.

5. Soddalashtirish. Bunda ijodkor talaba o'ziga yoqqan asarni kompozitsion yechimini qoldirgan holda, murakkab elementlarini soddalashtirib tasvirlashi mumkin. Bu usullardan to'g'ri foydalanib bilgan barcha ijodkorlar o'zlarining ijodiy darajalarini oshirishi va ijodiy jarayonda yangidan yangi g'oyalarga ega bo'lishi mumkin. Pedagogik ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarga ushbu usullarni to'g'ri yetkazish va har bir bajarilgan ijodiy ishni yetarlicha rag'batlantirish, talabada bajargan ishdan qoniqish hissini uyg'otish ularda kelgusida yangi, yanada mukammalroq ishlarni bajarishga undaydi.

Xulosa o'rnida aytganda, San'at va madaniyat sohasi talabalari uchun ijodiy qobiliyat – bu nafaqat professional ko'nikma, balki ularning shaxs sifatida shakllanishida ham asosiy vositadir. Ijodkor talabalarni qo'llab-quvvatlash, ularning tashabbuslarini ro'yobga chiqarish uchun ta'lim tizimi, jamiyat va san'atkorlar o'rtasida hamkorlik zarur. Bunday yondashuv natijasida milliy san'at va madaniyatimizni rivojlantiradigan yangi avlod shakllanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Sh.M.Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston Davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston NMIU, 2016.
2. "Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir". Xalq so'zi. 2017-yil, 4-avgust.
3. Qodirova, Z. (2021). San'at va madaniyatda innovatsion yondashuvlar. Toshkent: "San'at" nashriyoti.
4. Axmedova, G. (2022). "Ijodkor talabalarni tayyorlashda amaliy mashg'ulotlarning roli", Pedagogik ta'lim jurnali, №1(34)
5. Hasanov, A. (2020). "Madaniyat va san'at yo'nalishida ta'lim: muammolar va echimlar", O'zDJTI ilmiy to'plami, №2.

